Jahonda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini moliyaviy va moddiy qo'llab-quvvatlashda pensiya ta'minoti hal qiluvchi rollardan biri sifatida qaraladi. Jahon Banki (World Bank), Xalqaro Mehnat Tashkiloti (International Labour Organization), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (United Nations International Children's Emergency Fund) ma'lumotlariga ko'ra, "ko'pgina mamlakatlarda ijtimoiy sug'urta badallari miqdori o'z majburiyatlarini bajarishi uchun yetarli emasligi sababli pensiya to'lovlarini moliyalashtirish Davlat budjetiga tobora ko'proq bog'liq bo'lmoqda va budjet defitsitini qoplash xarajatlari yalpi ichki mahsulot hajmining 1 foizidan 5 foizigacha tashkil etadi" [1]. "Ayni paytda jahon miqyosida pensiya yoshidagi dunyo aholisining 77,5 foizi yoshga doir pensiya bilan ta'minlangan" [2]. "2050-yilga borib, 60 yoshdan oshgan dunyo aholisi ikki barobarga oshib, 2,1 milliardga yetadi" [3].

Bugungi kunda, dunyoda fuqarolar pensiya tizimini rivojlantirishning nazariy hamda uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga



a'zo mamlakatlarda pensiya va ijtimoiy fondlar (jamg'armalar) faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish asoslari ishlab chiqilgan, pensiya tizimlarini baholovchi Melburn Mercer global pensiya indeksi (Melbourne Mercer Global Pension Index) va keksalarning hayot sifati indeksi (Global Age Wath Index) kabi xalqaro reyting indeksleri nazariy jihatdan takomillashtirilgan, rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy sug'urta badallariga asoslangan ko'p bosqichli pensiya tizimini bosqichma-bosqich joriy etish talablari ishlab chiqilgan, xususiy pensiya fondlarini tashkil etish va rivojlantirish, korporativ pensiya dasturlarini faol joriy qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan (Organization for Economic Cooperation and Development), demografik omillarning fuqarolar pensiya ta'minoti tizimiga ta'sir darajasi tadqiq etilgan va modifikatsiyalashgan usullari ishlab chiqilgan va shu kabilar. Biroq, aksariyat mamlakatlarda pensiya tizimini isloh qilish va ko'p bosqichli pensiya ta'minoti tizimini joriy qilish, ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish, xususiy pensiya fondlarini tashkil etish va rivojlantirish, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ko'p komponentli pensiya modellarini takomillashtirish borasida ko'plab muammolar mavjud.

Yuqoridagi holatlar va bir vaqtning o'zida aholining umr ko'rish davrining uzayib borishi hamda mehnat bozorida vaziyat fuqarolar pensiya ta'minoti tizimining takomillashtirilishi zarurligini taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlarda pensiya ta'minotiga nisbatan turli hil ta'riflar mavjud. Masalan, V. Roikning fikricha, "pensiya ta'minoti – bu keksalik va pensiyaga chiqish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotish holatlarida moddiy jihatdan ta'minlanmaganlik riskidan aholini ijtimoiy himoya qilishning eng muhim yo'nalishidir"[4]. S.Xmelevskyaning fikricha, "pensiya ta'minoti – bu davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va keng ma'noda pensiya sug'urtasini qamrab oladi"[5]. S.Orlov va A.Shemetovning ilmiy tadqiqotlarida, "pensiya ta'minoti – bir qancha sabablarga ko'ra (qarilik, nogironlik, boquvchisini yo'qotganlik, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va h.k.) mehnatga layoqatini yo'qotgan aholi qatlamini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlar tizimi"[6], sifatida ta'riflangan.

Amerika qo'shma shtatlarining Arizona universiteti professori Jun Peng tadqiqotlarida "pensiylar pensionerlarning davriy daromadlari, kechiktirilgan to'lovlar, fuqaroning mehnatga layoqatsizligi tufayli yo'qotilgan ish haqi uchun kompensatsiya ekanligi qayd etilgan hamda ijtimoiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan talqin qilingan"[7]. J.Pengning qayd etishicha, "AQSHda ishlovchilarning pensiyaga chiqqandan keyingi moddiy ta'minoti, odatda, uch manba: ijtimoiy ta'minot, ish beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan pensiyalar, shuningdek, shaxsiy omonatlardan iborat bo'ladi.

Ijtimoiy sug'urta sohasida yirik olim V. Roikning fikricha, "pensiylar fuqarolarga keksalikda, nogironlikda, boquvchisini yo'qotganida moddiy jihatdan ta'minlanmaslik riskidan ijtimoiy himoya qilishning muhim shakli bo'lib, yo'qotilgan ish haqi (daromadi)ning bir qismining qoplanishiga mo'ljallangan oylik pulli to'lovlardir"[8]. Bu esa fuqarolarning keksalik davrida yashashlari uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratilishini yoki ularning ijtimoiy xavfsizligi ta'minlanishini anglatadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan "D.Rustamovning dissertatsiya ishida budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va oshirish masalalari"[9], "A.Xaydarovning ilmiy ishlarida fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish yo'llari"[10]. M.Erxonova, B.Tursunov, S.Yodgorov, F.Saidmurodov tadqiqotlarida mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, tegishli xulosalar asosida pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar shakllantirilgan[11]. Sh.Rajabovning ilmiy tadqiqot ishlarida nodavlat pensiya ta'minoti va investitsion faollikni oshirish yo'nalishlari"[12], F.Zayniddinovning ilmiy ishlarida pensiya tizimi daromadlarini ijtimoiy ta'minot va investitsion faoliyatga samarali sarflash yo'llari"[13], Sh.Hamdovning dissertatsiya ishida fuqarolar yoshiga doir pensiya ta'minotining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirishning ayrim jihatlari"[14], B.Mamatovning ilmiy ishlarida O'zbekiston Respublikasida fuqarolar pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish yo'nalishlari"[15] tadqiq etilgan.

Professor A.Vaxabov ilmiy ishlarida "pensiya ta'minoti – aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida muhim o'rin tutishi, ijtimoiy sug'urta dasturining bir qismi hisoblanishi, pensiyalarni tayinlash va to'lash tartibini ham o'zi ichiga qamrab olishi hamda barcha taraqqiy etgan mamlakatlarda ijtimoiy ta'minotning ustuvor yo'nalishi"[16] ekanligi qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Chet mamlakatlar pensiya tizimini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni



tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir mamlakatda pensiya tizimi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holatlardan kelib chiqib shakllanadi va rivojlanadi. Pensiya atamasi lotincha "pensio" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "to'lov" [17] ma'nosini anglatadi.

"Davlat tomonidan tashkil etilgan birinchi pensiya tizimi 1889-yilda Germaniya Federativ Respublikasida amalga kiritilgan" [18]. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, ijtimoiy sug'urta majburiy bo'lib, badallar kiritishga asoslangan, ya'ni tizimda pensiya olish huquqi ilgari to'langan ijtimoiy sug'urta badallariga asoslangan. Germaniya fuqarolari tomonidan Pensiya fondiga to'lanadigan har oylik to'lovning o'rtacha miqdori ular ish haqining 20 foizini tashkil qiladi. Bunda uning teng yarmini ish beruvchi to'laydi. Fuqaro harbiy xizmatni o'tayotgan vaqtda yoki ayollarning bolani pavarishlash ta'tili (dekret) ta'tili davomida to'lovlar davlat hisobidan amalga oshiriladi. Pensiya hisob-kitobi yakka tartibdagi (individual) koeffitsiyentlar asosida (butun mehnat faoliyatida) amalga oshiriladi. U pensiyaga chiqish yoshiga (Germaniyada pensiyaga chiqish yoshi 67 yoshni tashkil qiladi), mehnat stajiga, ish haqi miqdoriga va pensiyaning turiga bog'liq bo'ladi. Germaniyada ishlovchilarning ko'pchiligi nodavlat pensiya fondlarida ishtirok etadilar va xususiy pensiya rejalariga ega.

Ilk pensiya ta'minoti Fransiya harbiy dengiz floti ofitserlari uchun 1673-yilda joriy etilgani ko'pgina mamlakatlarda qayd etilgan. 1790-yildagi "Buyuk fransuz inqilobi" davrida davlat xizmatchilari uchun fuqarolik pensiyasi haqidagi qonun qabul qilindi. U 30 yil mehnat stajiga ega bo'lgan va 50 yoshga to'lgan fuqarolar uchun mo'ljallangan edi. Fransiya pensiya tizimi "taqsimlanuvchi" modelga asoslangan bo'lib, bunda pensionerlarning pensiyalari iqtisodiy faol aholi to'lovlari asosida shakllanuvchi daromadlar hisobidan ta'minlanadi. Pensiya ta'minotini boshqarish davlat nazorati asosida Kasaba uyushmalari va assotsiatsiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Pensiya badallari ish beruvchilar va ishlovchilar o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi. Erkin kasb egalari, jumladan, kichik tadbirkorlik subyektlarining, dehqonlarning Pensiya fondiga to'laydigan har oylik to'lovlari miqdori ish haqining 16,35 foizni tashkil qiladi. Pensiyalar o'rtacha ish haqining 50 foizini tashkil qiladi. Pensiya tayinlashda so'nggi 11 yillik mehnat staji hisobga olinadi. Pensiyaning miqdori fuqaroning mehnat staji va ish haqi miqdoriga bog'liqdir. Shunisi muhimki, Fransiyada minimal va maksimal davlat pensiyalari amal qiladi. Bugungi kunda minimal davlat pensiyasi taxminan yiliga 6 ming yevroni tashkil qiladi, maksimal davlat pensiyasi miqdori esa bundan ikki barobar ko'pdir. Fransiyada kech pensiyaga chiqishni rag'batlantiruvchi omillar amal qiladi. "Fransiya Qariyalar ishlari bo'yicha vaziri Mishel Delone mamlakatda 60 yoshdan oshganlar umumiy aholi ulushida 23,4 foizni tashkil etayotganini ta'kidlar ekan, keksalarni ishlab chiqarishga faol jalb qilish masalasini ko'tardi. Ular istiqbolda, nafaqat, davlat xizmatlari uchun, balki, ko'plab kompaniyalarga ham bag'oyat foydali shaxslarga aylanishlari mumkinligini e'tirof etadi" [19].

Shvetsiyada pensiyalar uch qismdan iborat: shartli-jamg'arma; jamg'arma va kafolatli. Birinchisi, ishchilar ish haqining 16 foizini tashkil etuvchi badallar hisobidan shakllanadi va bu joriy iqtisodiy vaziyat va demografik holatdan kelib chiqib, indeksatsiyalanadi. Jamg'arma qismi ham ishchilarning ish haqiga bog'liq bo'ladi, biroq, bu mablag'lar ishlovchining hisob-raqamidagi real mablag'lar bo'lib, ushbu mablag'larni nodavlat pensiya fondlari orqali investitsiyalashi mumkin.

Finlyandiya pensiya tizimida asosiy o'rinni taqsimlanuvchi pensiya tizimi egallaydi. Taqsimlanuvchi pensiya tizimi bazaviy va sug'urtaviy qismga bo'linadi. Bazaviy qism milliy (davlat) pensiyaning minimal miqdorini kafolatlaydi. Mehnat pensiyasining sug'urtaviy qismi markazlashmagan bo'lib, sug'urta kompaniyasi yoki pensiya fondining tanlab olingan sxemasi bo'yicha badallar hisobiga shakllanadi. Sxemalar tarmoq, alohida korxonalar, ijtimoiy guruhlar tarzida bo'lishi mumkin. Sxemalar qisman fondlashtirilgan bo'ladi.

Norvegiyada pensiyalar har bir fuqaroga davlat tomonidan to'lanadi

va uning miqdori mehnat staji va ish haqi miqdoriga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, mamlakatda neft hisobidan orttirilgan yuqori daromadlar joylashtirilgan Pensiya fondi mavjud. Davlat ushbu fond mablag'larini butun dunyo bo'yicha ko'chmas mulk va fond bozoriga investitsiya qiladi. Norvegiyada (Skandinaviya mamlakatlarida ham) pensiyaga chiqish yoshi ayollar uchun 65 yosh, erkaklar uchun 67 yoshni tashkil qiladi, biroq, Norvegiya hukumati hozirgi kunda pensiya yoshini 70 yoshga yetkazish choralarini ko'rmoqda.

AQSHda davlat pensiya tizimi hamda xususiy pensiya tizimi amal qiladi va shunga mos ravishda AQSH fuqarolari o'zini uch turdagi pensiya bilan ta'minlaydi: davlat, xususiy jamoa (ish joyi bo'yicha) va xususiy individual (shaxsiy pensiya hisob-raqami ochish yo'li bilan). Taqsimlanuvchi (davlat pensiyasi) tizimda pensionerlar hozir ishlayotgan fuqarolar tomonidan Pensiya fondiga badallarni to'lashlari hisobiga pensiya oladilar. AQSHda eng yirik davlat pensiya tizimi – umumiy Federal dastur hisoblanib, ushbu dastur iqtisodiyotning xususiy sek-



torida band bo'lgan barcha aholini qamrab oladi va taqsimlanuvchi tamoyilga asoslanadi. Dastur 1935-yilda qabul qilingan "Ijtimoiy sug'urta to'g'risida"gi Qonunga asosan amal qiladi va minimal pensiyani ta'minlaydi. Jamg'ariluvchi tizimga esa davlat pensiya dasturlari bilan birga xususiy pensiya dasturlari ham tegishlidir. Jamg'ariluvchi tizimdagi davlat pensiya dasturlari mahalliy organlarda va Hukumat tarkibida ishlovchi fuqarolarga mo'ljallangan. Iqtisodiyotning xususiy sektorida ishlovchilar ish joyida tashkil etiladigan qo'shimcha davlat pensiya tizimida ishtirok etishlari mumkin. Dastur belgilangan to'lovlar asosida ish beruvchilar tomonidan qilinadigan ajratmalar hisobidan shakllanadi, bunda ishlovchilar ishtirok etmaydi. Har bir AQSH fuqarosi tijorat va jamg'arma banklarda, pay fondlarida, sug'urta kompaniyalarida o'zining shaxsiy pensiya hisob-raqamini ochishlari mumkin. Shaxsiy pensiya hisob-raqamiga to'lovlarning yillik miqdorining yuqori chegarasi cheklangan bo'lib, 2000 AQSH dollarini tashkil qiladi. Ushbu hisob-raqamdagi mablag'larni 59,5 yoshgacha yechib olish mumkin emas, 79,5 yoshga to'lganda esa hisob-raqam majburiy tartibda yopiladi. Hisob-raqamdagi ushbu mablag'lar soliqqa tortilmaydi, ammo, ushbu mablag'larni hisob-raqamdan yechib olishda hamda hisob-raqamni yopishda jamg'arilgan mablag'lardan daromad solig'i olinadi. AQSHda 1938-yilgacha tug'ilgan shaxslar uchun pensiya yoshi 65 yoshni tashkil qiladi. Aholining umrguzaronligi oshib borishi bilan "Ijtimoiy ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga tegishli o'zgartishlar kiritildi va pensiya yoshi 67 yosh qilib belgilandi. AQSH pensiya tizimining modeli bir qancha Lotin Amerikasi davlatlarida va Portugaliyada ham amal qiladi.

Chili pensiya tizimi dunyodagi eng innovatsion pensiya tizimlaridan biri bo'lib, pensiya jamg'armalari shakllanishining javobgarligi ishlovchi fuqarolar zimmasiga yuklatilgan. Har bir fuqaro o'zining pensiya hisob-raqamiga ega bo'lib, ushbu hisob-raqam ishlovchilar oylik ish haqining 10 foizini tashkil etuvchi badallar hisobidan to'ldirilib boriladi. Keyinchalik ushbu mablag'lar fuqarolar xohishiga ko'ra xususiy boshqaruvchi kompaniyalar tomonidan kapitalizatsiya qilinadi. Chilida pensiya yoshi erkaklar uchun 65 yoshni, ayollar uchun 60 yoshni tashkil qiladi.

Yaponiya pensiya ta'minoti modelida budget hisobidan moliyalashtiriladigan davlat ijtimoiy ta'minoti muhim o'rin egallaydi. "Yaponiya uch darajali pensiya tizimiga ega" [20]. Birinchisi – bu bazaviy pensiya, ya'ni bu pensiyani millati, faoliyat turi, daromadi darajasidan qat'iy nazar, mamlakatda yashovchi barcha fuqarolar olish huquqiga ega. Bazaviy pensiyalar yoshga doir (65 yoshga to'lgan va sug'urta staji mavjud bo'lgan), nogironlik hamda boquvchisini yo'qotganlik pensiya turlariga bo'linadi. Ikkinchisi – davlat va kasb pensiyalari. Buni yollanma ishchilar bazaviy pensiyasiga qo'shimcha tarzda oladilar. Uchinchisi, xususiy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotidir. Yaponiyada pensiyaga chiqish yoshi 65 yoshni tashkil qilib, oldinroq pensiya chiqilganda pensiya miqdorini kamaytiruvchi va kech pensiyaga chiqishni rag'batlantiruvchi omillar mavjud. Masalan, fuqaro oldinroq pensiyaga chiqqanda pensiya miqdori xar bir erta chiqilgan oy uchun 0,7 foizga qisqaradi (umumiy miqdorda 60 yoshgacha qisqarishi mumkin) fuqaro pensiya yoshiga yetganidan so'ng (65 yosh) pensiyaga chiqmasdan mehnat faoliyatini davom ettiradigan bo'lsa, pensiya miqdori 0,8 foizga mutanosib ravishda har bir kechiktirilgan oy uchun oshirib boriladi.

"Xitoy Xalq Respublikasida pensiyalarni dastlab chinovniklar va davlat kompaniyalari ishchilari olishgan. Keyinchalik bu tizimga bozor islohotlari natijasida xususiy sektorda ishlovchi shahar aholisi ham jalb qilingan" [21]. 2007-yilda 30 foiz aholi pensiya ta'minoti bilan qamrab olingan bo'lsa, qolganlarini an'anaviy tarzda farzandlari boqishgan. 2009-yilda Xitoy hukumati qishloq aholisi uchun ham pensiyalarni joriy qildi va 2012-yilga kelib pensiya tizimi aholining 55 foizini qamrab oldi. Xitoyda pensiya badallari aholining qishloq joylarda yoki shaharda yashashiga, davlat tashkilotida yoki xususiy kompaniyalarda ishlashiga bog'liq bo'ladi. Davlat pensiyasi miqdori o'rtacha ish haqining 20 foizini tashkil qiladi. Qishloq joylarda pensiya miqdori dehqonlarning o'rtacha oylik daromadining 10 foizini tashkil qiladi. Xususiy sektorda ishlovchilar ish haqining 8 foizi Pensiya fondiga yo'naltiriladi. Xitoyda erkaklar 60 yoshdan pensiyaga chiqadi. Boshqaruv sohasida faoliyat ko'rsatuvchi ayollar 55 yoshdan, jismoniy mehnat bilan mashg'ul ayollar 50 yoshdan pensiyaga chiqadi. Minimal pensiyani olish uchun talab etiladigan mehnat staji kamida 15 yilni tashkil qiladi.

Hozirda ko'plab mamlakatlarda pensiyaga 65 yoshdan chiqiladi. Yevropa va AQSHda yaqin yillar ichida bu chegarani 70 yosh qilib belgilash nazarda tutilmoqda. "2005-yildayoq Yevrokomissiya tomonidan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirib borishi zarurligi bo'yicha tegishli tavsiyalar berilgan. 2060-yilga borib iqtisodiy nuqtayi nazardan optimal variant 70 yosh atrofida bo'lishi rejalashtirilgan" [22].

Bugungi kunda turli mamlakatlarda belgilangan pensiya yoshi turlicha bo'lib, bu har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holatidan kelib chiqib belgilangan (1-jadval). Shuni alohida qayd etish zarurki, deyarli barcha mamlakatlarda amalga oshirilayotgan pensiya islohotlari belgilangan pensiya yoshini oshirishga qaratilgan.



1-jadval. 2024 yilda turli mamlakatlarda belgilangan pensiya yoshi [23].

Mamlakatlar	Belgilangan pensiya yoshi	
	ayollar	erkaklar
Avstriya	60,5	65
Ozarbajjon	63,5	65
Armaniston	63	63
Belarus	58	63
Belgiya	65	65
Bolgariya	62	64
Buyuk Britaniya	66	66
Vengriya	65	65
Germaniya	65	65
Gretsiya	67	67
Gruziya	60	65
Isroil	65	67
Islandiya	67	67
Ispaniya	66	66
Italiya	67	67
Qozog'iston	61,5	63
Kanada	65	65
Kipr	65	65
Xitoy	55	60
Latviya	65	65
Litva	64	65
Luksemburg	65	65
Meksika	65	65
Moldaviya	63	63
Norvegiya	67	67
Polsha	60	65
Rossiya	58	63
Ruminiya	62	65
Saudiya Arabistoni	60	60
Serbiya	63	65
Sloveniya	65	65
AQSH	66	66
Tojikiston	58	63
O'zbekiston	55	60
Ukraina	60	60
Fransiya	62	62
Chernogoriya	64	66
Shveysariya	64	65
Shvetsiya	64	65
Estoniya	64	64
Yaponiya	65	65



Masalan, Bolgariyada 2037-yilga kelib, pensiya yoshini ayollar va erkak uchun ham bir xil, ya'ni 65 yosh qilib belgilash rejalashtirilgan. Buyuk Britaniyada 2027-yilga kelib, pensiya yoshini 67 yosh, 2046-yilda esa 68 yosh qilib belgilash ko'zda tutilgan. Ispaniyada ham 2027-yilga kelib, pensiya yoshini 67 yosh qilib belgilash nazarda tutilgan. Xitoyda 2045-yilga kelib, pensiya yoshi 65 yoshni tashkil qiladi. Albatta, pensiya yoshining oshirilishi, eng avvalo, aholining umr ko'rish davrining uzayib borayotganligi bilan izohlanadi. Qolaversa, rivojlangan mamlakatlar ko'p bosqichli pensiya ta'minoti tizimiga ega. Ko'rib chiqilayotgan mamlakatlar ichida faqat O'zbekistonda fuqarolar amaldagi qonunlarga muvofiq erta pensiyaga chiqishadi, ya'ni O'zbekistonda yoshga doir pensiya olish huquqiga: "erkaklar – 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda hamda ayollar – 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar" [24].

Yuqoridagi holatlardan chet mamlakatlarda pensiya tizimida o'ziga xoslik va dunyoning ko'plab rivojlanayotgan davlatlari uchun tajribalar orttirishga munosib yutuqlar ham mavjudligini ko'rish mumkin. Biroq, shu bilan birga, ularda ham hal etilishi jiddiy dolzarblikka aylanib borayotgan muammolar ham yo'q emasligini ta'kidlab o'tmoq joiz. Xususan, AQSH va Yevropa davlatlarida pensiya yoshidagilarning jami aholi soniga nisbatan ulushi yil sayin ortib bormoqda. Bunday holat, pensionerlar uchun pensiya to'lovlari yuklamasining oshib borishiga olib keladi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi ekspertlari hisob-kitoblariga ko'ra, insoniyatning qarishi taraqqiyotga jahon iqtisodiy inqirozidan ham yomonroq zarba bo'lishi mumkin ekan. "Moody's" baholash agentligi hisobotida keltirilishicha, "dunyoda "qari" mamlakatlar 2030-yilga borib 34 taga ko'payadi. Tahlillarga ko'ra, 2012-yilda dunyo bo'yicha 15 yoshdan 64 yoshgacha bo'lgan jami mehnatga layoqatli aholining ulushi jahon tarixida eng yuqori cho'qqiga erishgan va 66 foizni tashkil etgan. Undan keyingi yillarda esa ushbu ko'rsatkichning tobora pasayib borganligi, 2050-yilga borib uning yanada pasayib ketishi va ushbu salbiy o'zgarishlar, asosan, rivojlangan mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelishi qayd etilgan. Bu, eng avvalo, yuqori darajada daromad oluvchi rivojlangan mamlakatlarda tug'ilishning pasayib borishi bilan bog'liqligi asoslangan. Jumladan, ushbu davlatlarda 1950-yilda bir ayolga nisbatan to'g'ri keluvchi tug'ilgan bolalar soni 4,05 tani tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda ushbu ko'rsatkich 1,8 tani tashkil etgan. 2050-yilga borib bu miqdor 1,7 tani tashkil etishi taxmin qilinmoqda" [25].

Dunyo amaliyotida qo'llaniluvchi "demografik dividendlar" (mamlakatdagi mehnatga layoqatli aholi yoshi va imkoniyati, demografik o'zgarishlardan dividendlar olish, mamlakatdagi mehnatga layoqatli aholi imkoniyatlaridan foydalanish jarayoni), asosan, aholining o'sishi, aholining jismoniy, intellektual va boshqa imkoniyatlarining ortishidan, mehnatga layoqatli aholi soni va ulushining ortishidan hamda ularning ichki va tashqi migratsiyasidan samarali foydalanib kelgan rivojlangan mamlakatlarda ko'proq kuzatilmoqda. Aynan mana shunday davlatlarda bugungi kunda "demografik dividendlar"dan foydalanishda salbiy o'zgarishlar yuzaga kelmoqda. Xususan, 2015-yilda "demografik dividendlar" olishdan keyingi bosqichdagi bu kabi mamlakatlarda mehnatga layoqatli aholining o'sish sur'ati atigi 0,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2050-yilga borib bu ko'rsatkich 0,22 foizga tushib ketishi taxmin qilinmoqda. Bu esa ayni hozirgi kunning o'zida ushbu mamlakatlarda avvallari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirgan "demografik dividendlar" endilikda "demografik soliqlar"ga o'zgarayotganligini, ya'ni pensiya yoshidagi aholi soni yil sayin ortib borgan holda ularni pensiya bilan ta'minlash xarajatlarning tobora ortib borayotganligini ko'rsatadi. Bu esa rivojlangan mamlakatlarda ish bilan bandlik va pensiya tizimida o'ziga xos bog'liqlik va muvozanatni ta'minlash bo'yicha yangicha islohotlar olib borilishini taqozo etadi. O'z navbatida, qarish jarayoni faqat rivojlangan davlatlarga xos emas. "Rossiya, Yaponiya, Tailand, Chili va Xitoyda ham demografik ahvol yomonlashmoqda. Hatto, nisbatan yosh hisoblangan Braziliya va Turkiya ham qarimoqda" [26]. "Agar hukumatlar 2050-yilga qadar pensiya yoshini ko'tara olmasa, Yevropada pensiya jamg'armalarining moliyaviy taqchilligi yiliga 100 milliard yevrodan kam bo'lmaydi" [27]. Demak, dunyoning barcha mamlakatlarida ham pensiya tizimini isloh etib borish doimiy jarayonga aylanishi talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Pensiya tizimi ijtimoiy ta'minotning muhim shakli hisoblanib, keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo'lgan va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarga moddiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar majmuini ifodalaydi;

2. Pensiyalar – pensiya sug'urtasi tizimida ishtirok etgan fuqarolarga qonun bilan belgilangan pensiya yoshiga yetganida, nogironlik yuz berganida va boquvchisini yo'qotganda moddiy jihatdan ta'minlash uchun pul summalarining kafolatlangan har oylik to'lovini anglatadi;

3. Pensiya yoshidagilarning mehnatga layoqatli aholi soniga nisbatan ulushining yil sayin ortib borishi va insoniyatning qarish jarayoni, aholi sonining o'sib borishi kabilar pensiya islohotlarini amalga oshirish zarurligini ko'rsatmoqda;

4. Chet mamlakatlarda ijtimoiy himoyaning turli institutlarini qamrab oluvchi pensiya tizimining turli modellari, jumladan, davlat pensiya ta'minoti, majburiy ijtimoiy sug'urta, shaxsiy ijtimoiy sug'urta va jamg'arib boriladigan pensiya modeli qo'llaniladi. Bunda "jamg'ariladigan" va "taqsimlanuvchi" modellar "kombinati-



yalashgan” holda ham amal qiladi. Buning asosiy sabablaridan biri demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o‘zgarishi va pensionerlarning munosib turmush farovonligini ta’minlashdir.

5. Bizning fikrimizcha, O‘zbekistonda davlat pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirishda quyidagi taklif va tavsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi:

- fuqarolarning mehnat bilan bandlik darajasini oshirish va ish bilan band bo‘lish davrini uzaytirish zarur;
- ijtimoiy sug‘urta badallari va jamg‘arib boriladigan pensiya badallari darajasini oshirish kerak;
- pensiya tizimini boshqarish samaradorligini oshirish lozim;
- munosib pensiya miqdorlariga erishish uchun shart-sharoitlar yaratish zarur (Ijtimoiy ta’minotning minimal xalqaro me‘yorlariga ko‘ra, pensiya tizimida qoplanish koeffitsiyenti 40 foizdan kam bo‘lmasligi tavsiya etilgan, ya’ni fuqarolarning pensiya miqdori avvalgi ish hami miqdorining kamida 40 foizini tashkil etishi kerak);
- ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan aholi toifalariga alohida e’tibor qaratish lozim (nogironlik pensiyalari, boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari, ular uchun maxsus ijtimoiy dasturlar yaratish va joriy qilish).

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini isloh qilish bosqichma-bosqich va barcha avlodlar manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. ILO, World Social Protection Data base (База данных МОТ о социальной защите в мире) на основе информации исследования в области социального обеспечения (Social Security Inquiry); база данных ILOSTAT; национальные источники данных.
2. World Social Protection Report.
3. Стало известно, сколько пенсионеров будет в мире к 2050 году - Газета.Ru | Новости (gazeta.ru.); Longevity: 6 ways to boost ageing populations according to WEF | Euronews.
4. Роик В.Д. Социальное страхование: теория и практика организации: учебник и практикум для магистратуры. – М.: Проспект, 2016. – С. 38.
5. Хмелевская С.А. Пенсионное страхование: философия, история, теория и практика: Учебник. – М.: Дашков и К^о, 2018. – С. 38.
6. Орлов С.Н., Шеметов А.П. Пенсионное обеспечение в Российской Федерации: Монография. – Курган: Изд-во Курганского гос. ун-та. 2013. – С.6.
7. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. – USA:Auerbach Publications, 2008. – P. 2-5.
8. Роик Д. Социальное страхование в меняющемся мире: каким будет выбор России? – СПб.: Питер, 2014. – С. 46.
9. Рустамов Д.Р. Ўзбекистонда пенсия тизимини молиявий барқарорлигини таъминлаш масалалари: Монография. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 200 б.
10. Хайдаров А. Ўзбекистонда фуқаролар давлат пенсия таъминоти тизимини такомиллаштириш: Монография. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2021. – 120 б.
11. Эрхонова, М., Турсунов, Б., Ёдгоров, С., & Саидмуродов, Ф. (2024). Совершенствование пенсионной системы в Узбекистане на основе рекомендаций международного валютного фонда. ModernScienceandResearch, 3(5).
12. Ражабов Ш.У. Нодавлат пенсия жамғармаларини шакллантириш ва инвестицион фаолликини ошириш: Иқт. фан. бўй. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Т.: ТМИ, 2018. – 66 б.
13. Зайниддинов Ф.Ш. Пенсия тизими даромадларини ижтимоий таъминот ва инвестицион фаолиятга самарали сарфлаш йўллари: Иқт. фан. бўй. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. –Т.: Iqtisod-Moliya, 2020. – 60б.
14. Ҳамдамов Ш.К. Фуқаролар ёшига доир пенсия таъминотининг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш: Иқт. фан. бўй. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2020. – 64 б.
15. Маматов Б.С. Ўзбекистон Республикасида фуқаролар пенсия таъминоти тизимини ривожлантириш йўналишлари: Монография. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2022. –160 б.
16. Вахабов А.В. ва бошқ. Пенсия тизимини ривожлантиришнинг хориж тажрибаси: Дарслик. – Т.: Иқтисод-молия, 2018. – Б. 11, 16, 23.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. П ҳарфи. Таҳрир ҳайъати Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. – Т.: ЎзМЭ, 2008. – Б. 50.
18. Федотов А. История возникновения пенсионных систем в зарубежных странах / А. Федотов // Труды ИСА РАН. – 2006. – № 23. – С. 308-316.
19. www.interfinanse.uz. (“Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali).
20. https://cyberleninka.ru/article/n/horizhiy-mamlakatlarda-pensiya-taminoti-tizimini-islo-etishning-ustuvor-y-nalishlari.
21. Konfutsiy. Hikmatlar. – Т.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – В. 5.
22. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. – USA.: “Auerbach Publications”, 2008. – P. 65.
23. Пенсионный возраст в разных странах мира (таблица) (molodaja-semja.ru).
24. 938-XII-сон 03.09.1993. Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида (lex.uz).
25. http://www.hrsdc.gc.ca/en/isp/common/hrsdcris/rismain.shtml.
26. http://www.hrsdc.gc.ca/en/isp/common/hrsdcris/rismain.shtml.
27. http://delo.ua

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

